

UZBEKISTAN AIRWAYS

INFLIGHT MAGAZINE

October, 2022

#06

06

Sharqiy xab -
FARG'ONA VODIysi SHAHARLARIDAN
QULAY PARVOZLAR

Eastern Hub - PROFITABLE TRAVELS FROM THE
CITIES OF FERGHANA VALLEY

14

O'zbek
PALOVI

Uzbek PILAF

24

Fuqaro aviatsiyasi
UCHUVCHISI BILAN SUHBAT

An interview with
A CIVIL AVIATION PILOT

Yuqori Sifatda
Dam Olishni
His Eting

**Feel What It's
Like To Go
First Class**



Qulaylikni tanlagan holda dam olishingizni

Hilton Tashkent Cityda o'tkazing

- **FIRST** Hilton Hotels & Resorts property in Uzbekistan
- **258** luxury rooms, including 50 Suites and 8 Presidential Suites designed in 4 unique styles
- **BALLROOM** 728 sq. m with an outdoor terrace
- 1000 sq. m
- **5** multifunctional meeting rooms for conferences and social events
- **RESTAURANTS & BARS:** Shosh Restaurant, Tumbler Bar, Lobby Lounge, City 21 Pan Asian Restaurant & Lounge on the 21st floor
- **HEALTH CENTRE:** swimming pool with hydromassage bath, Serenity Spa, steam and dry sauna, fitness centre



- O'zbekistondagi **BIRINCHI** Hilton Hotels & Resorts mehmonxonalar mulki
- **258** hashamatli xonalar, shu jumladan 50 ta lyuks va 8 prezident apartamentlari
- Maydoni 728 kv.m va terrasasi 1000 kv.m lik Ballroom
- Konferensiyalar va ijtimoiy tadbirlar uchun **5** ta ko'p funksiyali majlislar xonalari
- **RESTORAN VA BARLAR:** Shosh Restoran, Tumbler Bar, Lobby Lounge, City 21 Pan Osiyo Restoran & Lounge 21-qavatda
- **SALOMATLIK MARKAZI:** gidromassajli va suzish basseyini, Serenity Spa, bug 'li va quruq sauna, fitnes markazi

@hiltontashkentcityhotel
 @HiltonTashkentCity
www.tashkentcity.hilton.com

Islom Karimov ko'chasi, 2-uy, 5-blok
Tashkent, 100027, O'zbekiston
+998 71 210 88 88

2, Islam Karimov Street, block 5
Tashkent, 100027, Uzbekistan
+998 71 210 88 88

Hilton
TASHKENT CITY

Hilton



Uzbekistan Airways

Bort jurnali Inflight Magazine

#06, October, (111) 2022

Tahririyat kengashi raisi

Chairman of the Editorial Board

Umid Xusanov

Bosh muharrir

Editor-in-Chief

Yulduz Latipaeva

Dizayn va sahifalovchi

Design & Layout

Nodira Shoxizindayeva

Tarjimon

Interpreter

Javokhir Kamolov

Manzil:

Amir Temur shohko'chasi, 41, Toshkent, 100015,
O'zbekiston
Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21

1993-yildan beri nashr etiladi.

«UZBEKISTAN AIRWAYS» AJ Tahririyati

Address:

Amir Temur Avenue, 41, Tashkent, 100015, Uzbekistan
Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21

Published Since 1993 Publisher – JSC «UZBEKISTAN AIRWAYS»

ISSN 2181-8266

Tahririyat jamoasi

Editorial team

Ozoda Azimova

Kamola Ikramova

Bahodir Imomjonov

Matluba Kulyeva

Jamoliddin Hamdamov

Vadim Erzikov

Foto

Photo

Abdulaziz Xalilov

Vladimir Jirnov

Viktor An

Vladimir Kovrein

Lyalya Kuznetsova

Nabi Utarbekov

Reklama bo'yicha murojaat:

For advertisement:

+998 78 140-45-20

+998 78 140-45-21

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar(O'zMAA)
03.01.2007-yilda 0115 raqami bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

The magazine is registered by Press and Information
Agency of Uzbekistan on 03.01.2007. Registration
number No 0115



«PRINTUZ» MCHJ bosmaxonasida chop
etilgan. Buyurtma № 1252 Adadi 10 000
Manzili: Toshkent sh., Mirobod tumani,
Qo'shko'prik ko'chasi, 28/1 -uy

Printed at PRINTUZ Ltd. Order #1252 Circulation - 10 000

Address: 28/l, Mirabad dis., Koshkoprik st., Tashkent

MUNDARIJA

CONTENTS

06

Samarqandda
SHHT sammiti

07

SCO summit in
Samarkand



9

O'zbekiston
qanday qilib
Markaziy
Osiyoning
aviatsiya xabiga
aylanmoqda?

10

How Uzbekistan
is turning into an
aviation hub for
Central Asia?



14

O'zbek palovi

17

Uzbek pilaf



20

Yozyovon - yo'qolib
borayotgan tabiat
yodgorligi

17


Yozyovon - a natural
monument that is
disappearing

26

Fuqaro aviatsiyasi
uchuvchisi bilan
suhbat

27

An interview with a
civil aviation pilot



40

Aviakompaniya
yangiliklari
News of Uzbekistan
Airways

42

UzairPlus
sadoqatlik dasturi
UzairPlus loyalty
program

44

Uzbekistan
Airways parvozlar
xaritasi
Uzbekistan Airways
international flights

46

Uzbekistan
Airways
vakolatxonalari
Uzbekistan Airways
representative offices



32

Ko'p asrlik -
Rishton
sopol idishlari

38

Sharqiy xab -
Farg'onova vodiysi
shaharlardan qulay
parvozlar

35

Centuries - old
Rishton ceramics

39

Eastern Hub -
profitable
travels from the
cities of
Fergana valley



Hurmatli yo'lovchilar!

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi havo kemasiga xush kelibsiz! Biz mammuniyat bilan sizning e'tiboringizga "Uzbekistan Airways" bort jurnalining navbatdagi sonini taqdim etamiz.

Ushbu sonda biz O'zbekistonning eng noyob maskanlaridan biri – Farg'ona vodiysi haqida so'z yuritamiz. Bu betakror va go'zal mintaqqa, unda yashovchi odamlar mehmondostligi bilan ajralib turadi.

Ilgari bu mintaqaga ko'plab silivizatsiyalarning chorrahasi, Buyuk Ipak yo'lining muhim bog'iinlaridan biri bolgan. Tog'lar bilan or'algan Farg'ona vodiysi nafaqat Markaziy Osiyoning uchta davlati ortasida joylashgan, balki Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston ortasidagi aloqalarни murakkablashtiradi. Xitoy uning uchun har doim "mintaqaning derasasi" bo'lgan Farg'ona vodiysining transport loyihalariga sarmoya kiritishni rejalashtirmoqda.

Shunda mintaqaga nafaqat Xitoy bilan, balki boshqa mamlakatlar bilan ham yo'llarni bog'laydigan muhim hududiy markazga aylanadi.

So'nggi yillarda Farg'ona vodiysi sezilar darajada o'zgardi va bugungi kunda u jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot va boy madaniyatga ega zamonaviy yirik sanoat markazidir. Bu yerda amaliy san'at, adabiy va ma'rifiy an'analar saqlanib qolgan. Bu yerdagi qadimgi tepaliklar izlari va o'rta asrlar yodgorliklari avlodlarga Farg'ona vodiysining shonli o'tmishini eslatib turadi. 18-19 asrlarda bu voha Qo'qon xonligining asosi bo'lgan.

Bugungi kunda vodiy Uzbekistan Airways uchun xalqaro havo yonalishlarini rivojlantirish loyihalarida istiqbolli markazga ayanib bormoqda. Farg'ona xalqaro aeroportidan dunyoning turli mamlakatlariga havo qatnovi tarmogi kengaymoqda. Farg'ona vodiysiga tashrif hech kimni befarq qoldirmaydi va har bir mehmonning qalbida unutilmas taassurotlar qoldiradi. Jurnalimiz sahifalarida siz ushbu mintaqaga hayotining asosiy xususiyatlari haqida bilib olishingiz mumkin, ammo siz vohaga tashrif buyuribgina, uning o'ziga xos atmosferasini his qilasiz.

Sizga yoqimli parvoz tilaymiz!



Dear passengers!

Uzbekistan Airways welcomes you on board! We are glad to present you the next issue of monthly inflight magazine of Uzbekistan Airways.

In this edition we discover the unique place of Uzbekistan - Fergana Valley. It is the most authentic and picturesque region, and people inhabiting this area are distinguished by their hospitality.

Previously, the region was a crossroads of many civilizations, a developed transit point on the Great Silk Road. Surrounded by mountains, Fergana Valley divides the three Central Asian states, making communication within Kyrgyzstan, Tajikistan and Uzbekistan difficult. China, for which Fergana Valley has always been a "window to the region," intends to invest in transport projects. Thus, the region becomes an important regional hub, connecting routes not only to China, but possibly to other countries as well.

In recent years Fergana Valley has visibly transformed and today it is a modern big industrial center with a dynamic economy and rich culture. It has preserved traditions of applied arts, poetic literature and enlightenment. Here the traces of ancient settlements and monuments of the Middle Ages still remind the descendants of the glorious past of the region. In 18-19 centuries, this oasis was the core of Kokand Khanate.

Nowadays, the Valley is becoming a promising hub for Uzbekistan Airways in international air routes development projects. There are already active flights from Fergana International Airport to different countries of the world. A trip to Fergana Valley will not leave anyone indifferent and will impress every visitor with its colorfulness for a long time. On the pages of our magazine you can learn about the main features of life in this region, but its special atmosphere you can feel only by visiting it.

We wish you a pleasant flight!



Hampton – aniq tanlov

Qayerda bo'lsangiz ham, o'zingiz istagan tarzda
dam oling.

Funktionallik va qulaylik uchun intuitiv tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, **har safar sizga uzluksiz tajriba** taqdim etish bizning ustuvor vazifamizdir. Siz ishonishingiz mumkin bo'lgan turli xil qulayliklar bilan sayohatingiz davomida sizga kerak bo'lgan hamma narsaga ega bo'lasisiz.

Hampton by Hilton
Tashkent
17, Istiqbol str.,
Tashkent, Uzbekistan,
100047
+998712052200
<http://hampton.com/>

- Bepul, issiq nonushta
- Zamonaviy fitness markazi 24/7
- Biznes markazi 24/7
- Bepul Wi-Fi



Hampton - bu butun dunyo
bo'y lab 2700 ta
mehmonxonadir. Qaysi
birida qolsangiz, sizni
samimi tabassum va
e'tibor bilan kutib olishadi.
Chunki mehmonlarimiz
xursand bo'lsa, biz ham
xursandmiz.

**Bu 100 foiz Hampton™
kafolatidir**

The easiest decision of your trip.

Delivering the exceptional stay you deserve, everywhere you want to be.

Intuitively designed for both functionality and comfort, it's our priority to give you a **seamless experience – every time**. With a variety of amenities you can count on, you will have everything you need to stay on track.

Hampton by Hilton Tashkent
17, Istiqbol str.
Tashkent, Uzbekistan, 100047
+998712052200
<http://hampton.com/>

- Free, hot breakfast
- Modern fitness centre 24/7
- Business center 24/7
- Free WiFi

With 2,700 locations across the globe,
wherever and whenever you stay with us
you'll be welcomed with a warm smile and
thoughtful service that makes you happy –
because that's what makes us happy.
That's the 100% Hampton Guarantee™

Samarqandda SHHT sammiti

SHHTga a'zo davlatlar o'rtaida transport sohasidagi hamkorlik ulkan salohiyatga ega bo'lib, uni amalga oshirish, shubhasiz, mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishi va ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Joriy yilning 15-16 sentabr kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan yirik siyosiy xalqaro tadbir – SHHTning navbatdagi sammiti davomida tashkilotga a'zo davlatlar savdo aloqalari zanjirining barqarorligini ta'minlash maqsadida transport va logistika masalalari yo'nalishida qator hujjatlar imzolandi.

Xususan, SHHTga a'zo davlatlar o'rtaida o'zaro bog'liqlikni rivojlantirish va samarali transport koridorlarini yaratish bo'yicha hamkorlik konsepsiysi tasdiqlandi.

Mazkur konsepsiya xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirishda turli to'siqlarni bartaraf etish orqali mamlakatlar tranzit salohiyatidan samarali foydalanish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, jahon savdosи imkoniyatlaridan to'liq foydalanish imkonini yaratishga xizmat qiladi.

Samarqand SHHT sammiti doirasida mintaqaning global



iqtisodiy tarmoqlari, transport va tranzit yo'laklariga chuqur integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan yana bir muhim hujjat "O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy" temir yo'li qurilishi loyihasi bo'yicha hamkorlik tog'risida uch tomonlama bitim imzolandi.

"O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy" temir yo'li qurilishi loyihasining amalga oshirilishi mamlakatlar o'rtaida yagona transport tarmog'ini yaratishi, shu bilan birga Xitoydan O'zbekiston orqali Yevropaga va Janubiy koridor bo'ylab Fors ko'rfazi davlatlariga tashuvlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Bu esa o'z navbatida Janubiy – Sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo va Yevropa mintaqalarini o'zaro bog'lash imkonini beradi hamda O'zbekistonning tranzit salohiyatini yanada oshirib, savdo geografiyasini kengaytirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan geosiyosiy vaziyat

transport aloqlari va logistikaga ham katta ta'sir ko'ssatmoqda. Mazkur jarayonda tashqi savdo transport yo'laklarini yanada diversifikasiyalash, muqobil yo'nalishlarni rivojlantirish va yangilarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan sammit davomida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi bilan Eron Islom Respublikasi Yo'llar va shaharsozlikni rivojlantirish vazirligi o'rtaida Chabahor porti orqali xalqaro tashishlar va tranzitni amalga oshirish tog'risida anglashuv memorandumining imzolanishi alohida ahamiyatga ega.

Samarqand sammiti doirasida imzolangan mazkur hujjatlar SHHTga a'zo davlatlarning ishlab chiqarish va tijorat faolligini yangi bosqichga ko'tarish imkonini yaratishi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga bиргаликда erishishida muhim o'rн tutishi shubhasizdir.

SCO summit in Samarkand



Cooperation in the field of transport between the Shanghai Cooperation Organization member states has enormous potential, and its implementation will undoubtedly serve the sustainable development of our countries and strengthen multilateral trade and economic relations.

On September 15-16 this year, a number of documents were signed in the transport and logistics sector to ensure stability in the chain of trade relations between the SCO member-states during the regular SCO summit, a major international political event held in Samarkand.

In particular, the SCO adopted an SCO concept of cooperation in developing interdependence and creating efficient transport corridors.

This concept serves to provide an opportunity to effectively use the transit potential of the countries, improve the regulatory framework, and fully use the opportunities of global trade by eliminating various obstacles in the implementation of international cargo transports.

During the Samarkand summit of SCO, another important document aimed at ensuring the region's deep integration into global economic networks and transport and transit corridors is the cooperation on Uzbekistan-Kyrgyzstan-China railroad construction project, a trilateral agreement has been signed.

The implementation of the Uzbekistan-Kyrgyzstan-China railroad project will make it possible to create a single transport network between the countries, simultaneously from China to Europe through Uzbekistan and to the Persian Gulf countries through the southern corridor.

This, in turn, makes it possible to connect the regions of South-East Asia,

Central Asia and Europe and serves as the basis for expanding the geography of trade, further increasing the transit potential of Uzbekistan.

Today's geopolitical situation in the world has a great impact on transport communications and logistics. In this process, the further diversification of foreign trade transport corridors, the development of alternative routes and creation of new ones are of vital importance.

From this point of view, the signing of the Memorandum of Understanding between the Ministry of Transport of the Republic of Uzbekistan and the Ministry of Roads and Urban Development of the Islamic Republic of Iran on the implementation of international transport and transit through the port of Chabahar is of particular importance during the summit.

There is no doubt that these documents signed during the Samarkand summit will create an opportunity to raise the production and commercial activities of the SCO member states to a new level, will play an important role in achieving the goals of sustainable development together.

Bon!

Boulangerie • Pâtisserie

📞 71 252 5694
📍 boncafe.uz
📍 Shevchenko 30,
Toshkent

**Bort talonini ko`rsating va
bepul kofega ega bo'ling**

**Free cup of coffee for
showing boarding pass**

Aksiya noyabr oyining oxirigacha amal qiladi · Promo lasts till the end of November



AFSONA
Contemporary Uzbek restaurant

📞 71 252 5682
📍 afsona_restaurant
📍 Shevchenko 28,
Toshkent

**Bort talonini ko`rsating
10% chegirma oling**

**10% Discount for
showing boarding pass**

Aksiya noyabr oyining oxirigacha amal qiladi · Promo lasts till the end of November

☘️
**Irish
Pub**

Authentic pub

📞 71 252 7842
📍 irishpubtashkent
📍 Shevchenko 30,
Toshkent

**Bort talonini ko`rsating
10% chegirma oling**

**10% Discount for
showing boarding pass**

Aksiya noyabr oyining oxirigacha amal qiladi · Promo lasts till the end of November



O'zbekiston qanday qilib Markaziy Osiyoning aviatsiya xabiga aylanmoqda

va nimani hisobiga u xorijiy kompaniyalarni jalb qilmoqda?

Sohani rivojlantirish maqsadida 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan "Uzbekistan Airways" aviatashuvchisini va xalqaro aeroportlarni boshqarish bo'yicha yagona operator – "Uzbekistan Airports"ni transformatsiya qilish bo'yicha yo'l xaritalari tasdiqlandi. Hujyatda sanab o'tilgan ko'plab bandlar allaqachon amalga oshirilib bo'lindi. Masalan, xorijiy aviakompaniyalarni jalb qilish uchun aeroport yig'imlari kamaytirildi.

O'tgan yili uchish va qo'nish, yo'lovchilarga uchib ketish va uchib kelish vaqtida xizmat ko'satish, aeroport terminalidan foydalanish va boshqa xizmatlar tariflari ikki marta pasaytirildi. 2021-yil 31-oktabrdan boshlab Uzbekistan Airports'ning tashuvchilardan oladigan yig'imlari o'rtacha 15 foizga arzonlashdi. Bundan oldinroq, mart oyi boshida pasayish o'rtacha 27% ni tashkil etgandi. Shunday qilib, O'zbekiston aeroportlarida xorijiy havo kemalariga xizmat ko'satish bo'yicha chegirmalarning umumiy miqdori 43 foizni tashkil etdi.

Natijada 2021-yilning oxiriga kelib O'zbekistonga parvozni amalga oshiradigan xorijiy aviakompaniyalar soni 2019-yilga nisbatan 1,5 baravarga - 43 tadan 63 taga ko'paydi.

Bunday o'sishning sabablari faqatgina iqtisodiy ko'satkichlardan iborat emas. "Aeroportlarimiz transosyo havo yo'lagida joylashgani respublikaning yaxshi tranzit salohiyatidan dalolat beradi," – deydi "Uzbekistan Airports" Boshqaruvi raisi Rano Jorayeva.

Ichki reyslarga ortib borayotgan talabni qondirish uchun joriy yilning kuzida yangi SilkAvia aviakompaniyasi O'zbekistonda yo'lovchilarga xizmat ko'satishni yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqda. 40 ga yaqin turli yonalish ochilishi va chiptalar narxini 25-28 dollar oralig'ida belgilash rejalashtirilgan.

salohiyatini rivojlantirish maqsadida havo transportida yuk tashish tariflari pasaytirildi. "Uzbekistan Airways" AJning yetarlicha rivojlangan tarmog'ini hisobga olgan holda, mahalliy eksportchilarga AQSH, Yevropa, Yaqin Sharq, MDH va Sharqiy Osiyo kabi yonalishlar bo'yicha yuk tashishni taklif qilishi mumkin.

Biroq "Uzbekistan Airways" AJ yuk aviatashuvlarining asosiy qismini "Xitoy-Yevropa" dasturi doirasida O'zbekiston orqali tranzit tashiladigan yuklar tashkil etadi. Ushbu loyiha doirasida kompaniya Tyanszin – Afina, Gonkong – Amsterdam, Shenchjen – Shalon Vatri yonalishlari bo'yicha parvozlarni amalga oshirdi.

Aviatashuvchi kelgusida Toshkent-Guanchjou-Toshkent (2023-2024-yillarda rejalashtirilgan), Toshkent-Lahor-Toshkent (2025-2026-yillarda ishga tushiriladi), Toshkent-Sian-Toshkent (boshlanishi 2024-yilga mo'ljallangan), Toshkent-Chendu-Toshkent (2026-yilda rejalashtirilgan), Toshkent-Dakka-Toshkent (2027-yilda ishga tushiriladi) yonalishlari bo'yicha parvozlarni amalga oshirish orqali yuk tashish hajmini ko'paytirish niyatida.

Mahalliy aviatashuvchining rivojlanishi bilan bir qatorda xorijiy ishtirokchilarning ham O'zbekistonda tranzit salohiyatini oshirishga qiziqishi ortayotgani kuzatilmoqda. Masalan, Polshaning Sky Taxi aviakompaniyasi Xitoydan Yevropaga O'zbekiston orqali yuk tashishni yo'lga qo'ydi.



Birinchi samolyot joriy yilning 11-iyun kuni Toshkentga qo'ndi. Poytaxt aeroporti texnik qo'nish va yonilg'i quyish uchun transfer bekatga aylanmoqda. 7-iyul kuni Ozarbayjonning yuk tashuvchi SilkWay aviakompaniyasi Boku - Navoiy - Gongkong yo'nalishi bo'yicha birinchi yuk qatnovini amalga oshirdi. Kompaniya Yevropadan Osiyoga, shuningdek AQSHdan Afrikaga yuklarni yetkazib beradi. Aviakompaniya O'zbekistonga charter reysni amalga oshirdi.

Ikki yil avval respublikaning barcha hududiy aeroportlarida "Ochiq osmon" rejimi joriy etilgan bo'lib, bu xalqaro aviakompaniyalarga mamlakatimiz havo bandargohlari va ularning yer usti xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi.

Faqatgina tariflar sababli emas

O'zbekistonning jozibadorligi nafaqat iqtisodiyot hisobiga, balki infratuzilma sababli ham oshmoqda. "Uzbekistan Airports"ni rivojlanadirish bo'yicha yo'l xaritasida havo bandargohlari tarmog'ini boshqarish va infratuzilma dasturlarini amalga oshirishda IT-teknologiyalarni joriy etish ko'zda tutilgan.

Unda qo'yilgan maqsadlardan biriga joriy yilning mart oyida erishildi, Samarqandda yangi aeroport foydalanishga topshirildi. Ushbu loyiha Uzbekistan Airports uchun birinchi raqamli loyiha bo'ldi, chunki bu yil shahar SHHT sammitiga mezonlik qildi. Loyiha davlat-xususiy sheriklik asosida Air Marakanda va Uzbekistan Airports tomonidan amalga oshirildi. Loyihaning umumiy qiymati qariyb 150 million dollarni tashkil etdi.

Obyektda bojxona va chegara nazorati bo'yicha innovatsion yechimlar orqali o'tkazish qobiliyatini oshirish imkonini beruvchi yangi xizmat ko'satish texnologiyasi joriy etildi.

Yangi tizimlardan biri shuningdek yaqinda Toshkent xalqaro aeroporti terminalida ham joriy etildi. Mazkur texnologiya yo'lovchilar va ularning yuklarini bojxona nazoratini inspektorlarning bevosita ishtirokisiz, vaziyatni masofadan turib nazorat qilish va faqat ayrim yo'lovchilarga qaratish imkonini beruvchi kuzatuv kameralari orqali amalga oshirish imkonini beradi.

Vadim Yerzikov
Kursiv

How Uzbekistan is turning into an aviation hub for Central Asia


and by what means does it attract
foreign companies?

For development of the industry in 2021 the road map for transformation of air carrier Uzbekistan Airways and the single operator on management of the international airports - Uzbekistan Airports were approved by the decree of the President of Uzbekistan. Many of the points listed in the document have already been implemented. For example, to attract foreign airlines reduced airport fees.

Rates for ensuring the takeoff and landing, passenger service for departure and arrival, using the airport terminal and other services were reduced twice last year. Since October 31, Uzbekistan Airports fees from carriers have fallen by an average of 15%. Earlier in March, the decrease was 27% on average. In total, the amount of discounts for services for foreign aircrafts at airports in Uzbekistan was 43%.

As a result, the number of foreign airlines flying to Uzbekistan by the end of 2021 increased by 1.5 times compared to 2019 - from 43 to 63. The reasons for this growth aren't just economic. "The location of our airports in the trans-Asian air corridor shows the country's good transit potential," said Rano Dzhuraeva, chairman of Uzbekistan Airports.

UZBEKISTAN AIRWAYS



To meet growing demand for domestic flights, the new Silk Avia airline plans to begin serving passengers in Uzbekistan this fall. It plans to open about 40 routes, and they want to set ticket prices between \$25 and \$28.

Full load

Cargo traffic is gaining momentum in parallel with the growth in passenger demand. The largest player at the air market of the republic Uzbekistan Airways will increase the volume of cargo shipped for export from 3.3 thousand tons in 2019 to 5.5 thousand tons in 2020 and up to 7.9 thousand tons in 2021. As our edition of the press service of the airline, "in order to support domestic exporters, as well as attract and develop the export potential of agricultural and textile products, the freight tariffs have been reduced. Given the fairly well-developed network of Uzbekistan Airways JSC, there is an opportunity to offer domestic exporters freight transportation to such destinations as the United States, Europe, the Middle East, the CIS and East Asia".

However, the lion's share of Uzbekistan Airways' shipments is those cargoes that are delivered within the framework of the

China-Europe program in transit through Uzbekistan. Within the framework of this project, the company carried out flights on routes Tianjin-Athens, Hong Kong-Amsterdam and Shenzhen-Chalon-Vatry.

The carrier intends to increase its traffic volume by operating Tashkent-Guangzhou-Tashkent (to be launched in 2023-2024), Tashkent-Lahore-Tashkent (to be launched in 2025-2026), Tashkent-Sian-Tashkent (to be launched in 2024), Tashkent-Chandu-Tashkent (to be launched in 2026), Tashkent-Dhaka-Tashkent (to be launched in 2027).

In addition to the development of the domestic carrier, there is a growing interest of foreign players in Uzbekistan's transit potential. For example, the Polish airline SkyTaxi has launched cargo transportation from China through Uzbekistan to Europe. The first plane landed in Tashkent on 11 June this year. The capital's airport will be a transfer point for technical landing and refueling. Azerbaijani cargo carrier Silk Way made its first cargo flight along Baku-Navoi-Hong Kong route on July 7. The company delivers cargo from Europe to Asia, as well as from the U.S. to Africa. The air carrier

made a charter flight to the republic. Two years ago, the Opened Skies regime was introduced in all regional airports of the republic, which opens to international airlines the access to the country's air harbors and their ground services.

Not by rates alone

Uzbekistan's attractiveness is enhanced not only by the economy but also by infrastructure. The road map for Uzbekistan Airports development envisages introduction of IT-technologies in managing the network of air harbors and implementation of infrastructure programs.

One of the goals was achieved in March this year. A new airport was opened in Samarkand. This project was number one for Uzbekistan Airports, as the city this year will host the SCO summit. Realization was carried out on the basis of state-private partnership on the part of Air Marakanda and Uzbekistan Airports. In total, the project cost about \$150 million. The facility implemented new service technology capable of increasing throughput through innovative solutions for customs and border control.

One of the new systems was also recently introduced at the Tashkent International Airport terminal. The technology allows customs control of passengers and their luggage without direct involvement of inspectors, through surveillance cameras, which will allow the situation to be monitored remotely and focus only on certain passengers.

Vadim Erzikov
Kursiv

SAYOHLARINGIZ UCHUN BEPUL CHECK-LIST!

FREE CHECKLISTS FOR YOUR TRAVELS!

Tailand, Turkiya va BAA da nima qilish mumkin?

Biz qiziqarli joylar ro'yxatini tuzdik va ularni sizga sovg'a qilamiz. Siz esa bizning Instagram-ga obuna bo'ling va Direct-ga "Check-list" kod so'zini yozib yuboring!




@easybooking.uz

What can you do in Thailand, Turkey and the UAE?

We have made useful lists of places and want to give them to you. Subscribe to our Instagram and send the code word "Checklist" to Direct!



skaner qiling



SAYOHLAT QILISH BU EASY.

Biz turlar uchun eng yaxshi narxlarni taklif qilamiz.



Dubay

📍 BAA

★★★★★ 5.0

\$ 789 dan



Istanbul

📍 Turkiya

★★★★★ 5.0

\$ 550 dan



Pxuket

📍 Tailand

★★★★★ 5.0

\$ 1150 dan



PLOV

Lounge & Banquet Hall

Sizni Abdulla Qodiriy ko'chasi 25/1
manzilida kutamiz.
Raqam bo'yicha jadvalni bron qilish:
90 951-55-88, 71 237-67-06
plovlounge

O'zbek palovi

O'zbek palovi boshqa yurtlarda ham tayyorlanadigan va sevib tanavvul qilinadigan ajoyib taomdir. Palov haqida turli afsonalar ham mavjud. Ulardan birida aytishicha:

▀ ▀ Bir kuni Buxoro hukmdorining oǵlı kambag' al oiladan bo'lgan bir go'zal qizni sevib qolibdi, ammo mavqeい, jamiyatda tutgan órni teng bo'limganligi sababli, ular orasidagi nikoh imkonsiz edi. Bundan tushkunlikka tushgan shahzoda yemay-ichmay qo'yibdi, kundan kunga so'lib boshlabdi. Shunda hukmdor mashhur tabib Abu Ali Ibn Sinoni chaqirtiribdi. Kasallikning sabablari haqidagi savollarga hech qanday javob topilmas, bemor shunchaki hech narsa aytishni xohlamas ekan. Shunda Ibn Sino kasallikni yurak urishini tekshirish yordamida aniqlamoqchi bo'ldi. U har qanday kasallikni tomir urishi yordamida tekshirish bo'yicha mohir tabib edi. Ibn Sino uning oldiga shaharning barcha ko'chalari nomini biluvchi insonni olib kelishlarini buyuribdi. Uni olib kelishganida esa, Ibn Sino bemorning tomirini ushlab yurak urishini tekshira boshlabdi



va kelgan inson shahardagi barcha ko'chalarning nomlarini baland ovozda ayta boshladi. Bir ko'cha nomini aytganida yigitning yuragi qattiqroq urdi. So'ngra o'sha ko'chada yashovchi barcha insonlarning ismini biluvchi odamni topishdi. U kishi bir hunarmandning ismini aytganda esa yigit hayajonga tushibdi. O'sha hunarmandni ham olib kelib undan farzandlarining ismini birin ketin aytishni so'radi. Hunarmand qizining ismini aytganida tabib bemor yuragida kuchli yurak urishini sezdi.

Hunarmand qiziga oshiq bo'lganini bilib Ibn Sino bemorga quyidagi davolanish muolajasini, ya'ni yigitni yettita masalliqdan iborat bo'lgan juda kuchli taom - palov osh bilan davolash va undan so'ng to'y qilishni buyurdi.

Xalq etimologiyasiga ko'ra "palov-osh" so'zi taom tarkibiga kiruvchi masalliplar bosh harfidan olingan:

- P** - piyoz;
- A** - ayoz – (sabzi);
- L** - lahm – (go'sht);
- O** - oliyo – (yog');
- V** - vet – (tuz);
- O** - ob – (suv);
- Sh** - sholi – (guruch).



Palov - o'zbek oshxonasining yutuqlaridan biri va xalqimizning eng sevimli taomidir. Tarixda bo'lgani kabi hozir ham palovni bayramlar, to'y hashamlar va aziz mehmon kutilgan paytlarda tayyorlashadi. Bayram palovi - bu no'xat, mayiz, behi, sarimsoq va boshqa barcha qo'shimchalarni solib tayyorlanadigan taom.

Ilgari palov badavlat kishilarning taomi bo'lgan. Asosiy aholi uni faqat bayram kunlari va mehmon kutganda pishirgan, kambag'al oilalarda palov odatda juda kam tayyorlanadigan taom bo'lgan. Hanuzgacha palov egasining boyligi va farovonligi, ijtimoiy mavqeni ko'rsatuvchi ko'zguga o'xshaydi.

Palov uchun asosiy masalliplar guruch, qo'y go'shti, sabzi va dumba yog'i.

Har qanday sharqona taom singari, palovga ham ziravorlar qo'shiladi: zira, mayiz, murch, no'xat va zarchava. Ushbu ziravorlarsiz palov o'zining ta'mi va sifatini yo'qotadi. Biroq, tajribali oshpazlar taomning ta'mi birinchi navbatda guruchga bog'liqligini aytishadi. Ziravorlar taomga nafaqat xushta'm, balki o'ziga xos xushbo'y hid ham beradi.

Palovni mehr bilan tayyorlash zarur va uni hamma birdek sevib tanovvul qiladi. Bu to'yimli taom kuch, ko'tarinkilik baxsh etadi. Oshpazlarning so'zlariga ko'ra, palov tayyorlanayotgandayoq uning xushbo'y hididan kayfiyat ko'tariladi. Har bir o'zbek yigit ushbu taomni tayyorlay olishi kerak va bu san'at bugungi kungacha g'urur va raqobat manbai bo'lib xizmat qilmoqda.



Choyxonalarda palov pishirish bo'yicha bellashuvlar o'tkaziladi, do'stlar davrasida dam olish palovsiz o'tmaydi.

Bugungi kunga qadar etnograf-olimlar palovning oltmisiga yaqin turini aniqladilar, ammo ba'zi manbalarga ko'ra, bu taomning yuzdan ortiq turi bor.

Palovning eng asosiy turlaridan biri bu - qovurma palov bo'lib, Toshkent va Farg'ona vodiylarida keng tarqalgan.


Andijon palovini tatib ko'rganlar, uni eng mazali palov deb e'tirof etishadi. Palovni odatda erkaklar choxonalarda ham tayyorlashadi. Uning boshqa nomi "Choyxona palov". "Choyxona palov" – tub aholining sevimli taomidir.

Taomning dasturxonga tortilishi ham juda muhim jarayon hisoblanadi. Farg'ona vodiyisida palov bitta katta laganga suziladi, ustiga - palov bilan birga pishgan go'sht bo'laklari, behi, sarimsoq, dolma, chirolyi qilib terilib, mayda tog'ralsan ko'k piyoz sepib qo'yiladi.

Taom bilan birgalikda uzum sirkasi, tog'ralsan turp, nordon anor donalari, pomidor, bodring va piyozdan tayyorlangan achchiq-chuchuk beriladi. Orqasidan achchiq qilib damlangan ko'k, Toshkentda esa qora choy ichiladi.

Palovni to'yguncha emas, balki me'yorida yeyish kerak, faqat shundagina u foydali bo'ladi.

Yulduz Latipaeva



Uzbek Pilaf



Uzbek pilaf is a beautiful and unpretentious dish that is loved and cooked in other countries. There are even legends about it. One of them is as follows:



Once the son of a Bukhara ruler fell madly in love with a beauty from a poor family, but because of class differences he could not marry her. The young man began to wither, lived in seclusion, refused from food, and as a result his well-being deteriorated sharply.

The sick man was brought to Abu Ali ibn Sina, a great scholar and healer.



Palov is one of the achievements of Uzbek cookery and the most favorite dish of our people.

Today, like in the past, pilaf is cooked for holidays and weddings; guests are welcomed with pilaf. Holiday pilaf is a pilaf that has gathered all

His inquiries about the causes of the disease gave no results: the patient simply did not want to talk about anything. Then Ibn Sina decided to determine the disease by pulse diagnosis. He was an incomparable master of determining any disease by the pulse.

Ibn Sina ordered a man to be brought to him who knew the names of all the quarters of the city. When he was brought, Ibn Sina began to observe the pulse of the patient, and the connoisseur of the city began to call loudly the names of the quarters. At the pronunciation of one of them the

young man's pulse quickened. Then a man was found who knew by name all the tenants of the named quarter. When one craftsman's name was uttered, the young man became very excited. This artisan was brought in and asked to give the names of his children. When he said his daughter's name, the scholar noticed a strong heartbeat in the patient.

Finding out that the young man was in love with the craftsman's daughter, Ibn Sina prescribed a treatment: to give the emaciated groom once a week "palov-osh".

Until the strength is restored, and then play a wedding.

According to a popular etymology the name of the dish "palov-osh" consists of the initial letters of all products included in it:

P - piyoz – (onions);
A - ayoz – (carrots);
L - lakhm – (meat);
O - olio – (fat);
V - vet – (salt);

O - ob – (water) and
Sh - shaly – (rice).

the possible toppings and additions: peas, raisins, dolma, quince, garlic and many others.

In the past, pilaf was the food of wealthy people. The general population cooked it only as a festive dish and for receiving

guests, and in poor families pilov was a very rare dish. To this day, pilaf is like a mirror of wealth and prosperity, the social status of the owner.

Rice, carrot, mutton and fat of sheep's tail are the main components of pilaf. As any oriental dish, pilaf needs spices and spices: zira, sesame, raisins, black pepper, peas and shines for color. Without these spices, Uzbek pilaf loses its flavor qualities. However, experienced cooks say that the taste of the dish depends primarily on the rice. As you know, spices give the dish not only a spicy taste, but also a peculiar flavor.

It is impossible to cook pilaf without loving it and it is impossible not to love it. This calorie-dense meal gives you strength and boosts your mood.

According to culinary experts, even during the cooking of pilaf the aroma lifts your spirits. Every male Uzbek is obliged to know how to cook this dish, and this art is still a source of pride and competition.

Competitions in cooking pilaf are held in Choyhonas (Choyhona - Teahouse), accompanying the leisure time in the circle of friends. To date, scientists and ethnographers have established about sixty varieties of pilaf, although, according to connoisseurs, the range of this honorable dish exceeds a

hundred. One of the main classic variants of pilaf, Kavurma palov (pilaf with frying), is widely spread in Tashkent and Fergana Valley.

They say that if you try Andijan pilaf once, all the others will not seem fine enough. It is cooked in teahouses, when there is a competition in its preparation between men. Another name for it is Choyhona pilaf. Choyhona pilaf is a favorite dish of the indigenous population.



The decoration and serving of the dish are a very important detail. In Ferghana valley pilaf is served as a pile on one big dish and on top there are pieces of meat, quince, garlic, dolma, meatballs and other products used for cooking pilaf and sprinkled with chopped green onions. Vinegar, sliced radish,

radish, pomegranate seeds, fresh tomato, cucumber and onion salads (Achchik chuk) are served separately. After the pilaf is served thickly brewed green tea, and in Tashkent - black tea. It is not recommended to eat pilaf in full, but not to finish it, then only it will be good for you.

In 2016, the culture and traditions of pilaf cooking were included in the UNESCO Representative List of the Intangible Cultural Heritage.

Yulduz Latipaeva

Yozyovon - yo'qolib borayotgan tabiat yodgorligi

Farg'ona vodiysi (Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari) qadimiy, o'ziga xos tabiiy hudud bo'lib, uning noyob o'simlik va hayvonot dunyosi bor. Shu bilan birgalikda bu yerda aholi juda zich joylashgan. Aynan vodiyning qoq markazida noyob qum barxanlari mavjud. Mazkur hududda 1991-yili tashkil etilgan va qo'riqlanadigan tabiat yodgorliklari - Yozyovon cho'llari (1820,4 ga) va Mingbulloq (1000 ga) joylashgan.

“ Bugun Yozyovon hududi bir biridan o'zlashtirilgan yerlar bilan ajratilgan, 0,46 km² dan 58,66 km² gacha maydonga ega 13 ta qismdan iborat. O'tgan yillarda mazkur hududda hukumat tomonidan baliqchilikni rivojlantirish qo'llab-quvvatlanishi natijasida qumli hududning aksariyat qismi baliq xo'jaliklariga berildi. Hozirda dalalar orasida saqlanib qolgan va bir-biridan uzilgan qum barxanlari buzilgan populyatsiya aloqalarini o'zida aks ettiradi. Bundan tashqari dalalarning sug'orilishi va ko'plab baliq xo'jaliklarining barpo etilishi ham gidrologik rejimni buzilishiga olib kelib, shoxrox maydonlarning paydo bo'lishi va qumliklarning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda, - deydi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Zoologiya institutining teriologi (sutemuzuvchilarni o'rganuvchi zoologiya fanining bir bo'limi) Mariya Grisina.

Bu yerda dunyoning hech bir burchagida uchramaydigan o'nlab o'ziga xos, ilmiy til bilan aytganda endemik o'simliklar, besh turdag'i endemik hasharot va besh turdag'i endemik sudralib yuruvchilar istiqomat qiladi. Ammo mutaxassislarning fikriga ko'ra, ular 4-5 yil ichida umuman yoq bo'lib ketishi mumkin.

Nega deysizmi?

“ Yozyovon qum barxanlarida 5 turdag'i endemik sudralib yuruvchilar yashashadi. Ushbu kaltakesak boshqa biror joyda uchramaydi. Bundan tashqari, bu yerda 50 dan ortiq turdag'i noyob hasharotlar, kulrang echkiemar, ilonlarning bir nechta turlari mavjud. Ularning deyarli barchasi O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan. Mazkur turlar faqatgina o'zlarining belgilangan hududlaridagina yashashadi va bir-biri bilan aralashib ketmaydi. Bu jihatni ham organish kerak, - deydi Rossiya Fanlar Akademiyasi, Moskva davlat universiteti Zoologiya muzeyi ilmiy xodimi Roman Nazarov. Shunga qaramay Farg'ona vodiysida Yozyovon tabiiy yodgorligidan tashqari birorta o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza etadigan qo'riqxona yoki uning muqobili yoq. Afsuski, bu yerda baliqchilikni rivojlantirish aynan ana shu turlarning yaqin 5 yil ichida yoq bo'lib ketishiga sabab bo'ladi.

Yozyovon tabiatining yana bir kushandası qum karyeridir

2020-yilda Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ishchi guruhining xulosasiga asosan qum zahiralarini o'zlashtirish natijasida O'zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan ko'plab hayvonot va o'simlik dunyosining yo'qolib ketishiga yoki kamayib ketishiga hamda mazkur hududda yer osti sizot suvlari ko'tarilishiga sabab bo'lishi mumkinligini inobatga olgan holda, ushbu hududda qazish ishlarini olib bormaslik maqsadga muvofiq, deb topilgan.

2020-yil 15-maydan alohida ishchi guruh tuzilib Yozyovon cho'llaridan qum qazib olishga yo'l qo'ymaslik

maqsadida tabiat yodgorligi hududi qat'iy nazoratga olingan.

Qoqon shahridan 19 km uzoqlikda Farg'onaviloyatining Dang'ara tumanida Katta turk qishlog'i joylashgan. Qishloqdagi deyarli har bir xonadon hovlisida qum barxani mavjud bo'lib, ularda endemik sudralib yuruvchilar yashaydi.

Ularning bu kaltakesaklarning dunyoning biror burchagida uchramasligi va O'zbekiston qizil kitobiga kiritilganidan xabari ham yo'q. Bundan tashqari tomonqa yerlarini kengaytirish uchun har yili barxanlar asta sekinlik bilan tekislanib, suv chiqarilib, o'rniqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekilmoqda.

Fazodan qaraganda oxirgi
38 yil, ya'nı 1984-yildan
boshlab bugungi kunga
qadar Yozyovon cho'llarining
inson tomonidan tegilmagan
10/1 qismi qolganligini
ko'rish mumkin. Biroq uning
maydoni ham kundan-kunga
qisqarmoqda.

Yozyovon cho'llarini saqlab qolish uchun nima qilish kerak?

Ayni paytda Yozyovon cho'llarida Critical Ecosystem Partnership Fund (CEPF)-yo'qolib ketayotgan ekotizimlarni saqlash hamkorlik jamg'armasi, yovvoyi tabiatni asrash xalqaro fondining (WWF) "Markaziy Osiyo tog'li hududlarida bioxilma-xillikning asosiy hududlarini saqlash dasturi" doirasida Rossiya Federatsiyasining Mixail Zukov jamg'armasi hamkorligida O'zbekiston FA Zoologiya instituti va Rossiya Federatsiyasi FA olimlari tomonidan "Farg'ona vodiysi hududida asosiy tabiiy majmualarni saqlash" bo'yicha 2 yillik loyihani amalga oshirishmoqda.

Maqsad - Farg'ona vodiysida davlat tomonidan muhofaza etiladigan hududni tashkil etish. Olimlar tomonidan Pop adirlari, Mingbulloq, Yozyovon, Qayroqqum, Sirdaryo daryosining qirg'oq bo'yłari, Farg'ona viloyatining bir qismida o'simlik va hayvonot turlarining sanog'i o'tkazilgan. Shuningdek Yozyovon cho'llarida kaltakesakning mutlaqo yangi turi Alsophylax sp. Gekkonni aniqlangan.



WWF-RUSSIA va CEPF loyihasi koordinatori Aleksandr Grigoryansning fikricha, bu zoologiya yo'nalishida juda katta tarixiy voqeа bo'lib, uning aynan aholi zich joylashgan hududda topilishi ham quvontiradi ham qayg'uga soladi, chunki uning soni hali aniq bo'lmay, so'nggi gekkonni aholi o'ylab o'tirmay o'dirib qo'ya qolishi mumkin.

Xalilulla Sherimbetov, O'zR Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar boshqarmasining boshlig'i:

« Muhofazaga olinadigan hudud maqomini berish uchun o'sha hudud bir nechta mezonlarga javob berishi kerak.

Bular: u yer inson faoliyati aralashmagan yoki kam aralashgan nisbatan katta hudud bo'lishi, mazkur hududda O'zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan hayvonot va o'simlik turlarining mavjudligi, inson faoliyati bilan o'zgartirilmagan tabiiy landshaftning mavjudligi, hududning imkon qadar aholi punktlaridan uzoqda joylashganligi va boshqalar. Qo'riqlanishi taklif etilayotgan hududlar alohida uchastkalardan iborat bo'lib Farg'on'a va Namangan viloyatlarida joylashgan. Mazkur hududlarni qamrab olgan yagona Milliy tabiat bog'i tashkil etish mumkin. Ammo buning uchun aniq, asoslangan ilmiy xulosalar zarur. Chunki qo'riqlanadigan hududni tashkil etish ma'lum bir xarajatlar bilan bog'liq.

Xulosa shuki, Yozyovon cho'llari va uning o'simlik hamda hayvonot dunyosini zudlik bilan muhofazaga olish zarur. Bir qarashda ko'pchilikka ko'zga ko'rinasmas kaltakesak va hasharotlar, cho'l o'simliklari inson uchun ahamiyatsizdek tuyulishi mumkin. Ammo ularning yashab qolishi, biozanjir halqalarining uzilmasligi, kelajak avlodga Yozyovon tabiatini saqlab qolish uchun muhimdir.

Nargis Qosimova

Yozyovon - a natural monument that is disappearing





Fergana Valley (Andijan, Namangan, Fergana regions) is an ancient, natural area with unique flora and fauna. At the same time, the population here is very dense. Right in the heart of the valley there are unique sand dunes. In this area there are deserts of Yozyovon (1820.4 hectares) and Mingbulok (1000 hectares) monuments of nature. Dozens of scientifically unique endemic plants, five species of endemic insects and five species of endemic reptiles live here. But according to experts, they may completely disappear in 4-5 years.

Why?



- Today the territory of Yozyovon is divided into 13 parts, separated from each other by appropriated lands, with an area ranging from 0.46 km² to 58.66 km². As a result of state support for the development of fisheries in the area in recent years, much of the sandy area has been given over to fish farms. The sand dunes left between the fields and detached from each other reflect the broken ties of the population. In addition, the flooding of fields and the establishment of many fish farms lead to the disruption of the hydrological regime, the emergence of saline areas and the disappearance of barchans, says Maria Grisina, a theriologist at the Institute of Zoology of the Academy of Sciences (the section of zoology that studies mammals).



- Five endemic reptiles live in the sand dunes of Yozyovon. These species of lizards are not found anywhere else in the world. In addition, there are over 50 species of rare insects, gray goats, and several species of snakes. Almost all of them are included into the Red Book of Uzbekistan. These species live only in places designated for them and do not mix with each other. This aspect should also be studied, said Roman Nazarov, researcher at the Zoological Museum of the Russian Academy of Sciences, Moscow State University.
 - Nevertheless, in Fergana Valley there is not a single reserve protecting the flora and fauna, or an alternative to it, except for the Yozyovon Nature Monument.

Unfortunately, the development of fisheries here will lead to the extinction of these species in the next 5 years.



From space we can see that 1/10th of the Yozyovon desert has remained untouched by humans for the past 38 years, that is, from 1984 to the present day. However, its area is also shrinking day by day.

Another part of the nature of Yozyovon is the sand pit.

In 2020, according to the conclusion of the working group of the State Committee of Ecology and Environmental Protection, as a result of the development of sand reserves many animals and plants included into the Red Book of the Republic of Uzbekistan will disappear or decrease, and land in this area, given the fact that this may lead to a rise in the groundwater level, it is considered advisable not to carry out excavations in this area.

Since May 15, 2020, a special working group has been formed to prevent sand mining in the area of the Yozyovon Desert natural monument, the territory of the natural monument is under strict control. Construction of Fergana reservoir is completed and already filled with water.

Large Turkish village is located in Danghara district of Ferghana region, 19 km from Kokand. Almost every house in the village has a shoal in its yard where endemic reptiles live.

They do not even know that these lizards are found nowhere else in the world and are included in the Red Book of Uzbekistan. In addition, in order to expand the agricultural lands, every year barchans are gradually leveled, water is released and agricultural products are planted there.



What should be done to preserve Yozyovon deserts?

